

Qo‘qon universiteti “Ta‘lim kafedra”si  
o‘qituvchisi, PhD, dotsent,  
O‘rinova Feruza O‘ljayevna taqrizi ostida

Boymirzayeva Shahnozaxon Olimjon qizi  
Qo‘qon universiteti  
“Ta‘lim kafedra”si o‘qituvchisi  
Telefon raqami: +998913699297  
Orcid: <https://orcid.org/0009-000178687602>  
E-mail: [boymirzayevashahnoza98@gmail.com](mailto:boymirzayevashahnoza98@gmail.com)

---

## **MAKTABGACHA TA‘LIMDA O‘QUV JARAYONINI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TASHKIL ETISH**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada maktabgacha ta‘limda o‘quv jarayonini pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish va ularning ahamiyati, pedagogic texnologiyalarni terbiyachilar faoliyatidagi roli haqida so‘z boradi.

**Kalit so‘zlar:** Pedagogik texnologiya, kreativlik, ijodkorlik, qobiliyat, mahurat.

---

## **ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ТЕХНОЛОГИИ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО ПРОЦЕССА В ДОШКОЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ ОРГАНИЗАЦИЯ НА БАЗЕ**

**Абстрактный:** В данной статье говорится об организации образовательного процесса в дошкольном образовании на основе педагогических технологий и их значении, роли педагогических технологий в деятельности воспитателей.

**Ключевые слова:** Педагогическая технология, творчество, креативность, способность, умение.

---

## **PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES OF EDUCATIONAL PROCESS IN PRESCHOOL EDUCATION ORGANIZATION ON THE BASIS OF**

**Abstract:** This article talks about the organization of the educational process in preschool education based on pedagogical technologies and their importance, the role of pedagogical technologies in the activities of educators.

**Key words:** Pedagogical technology, creativity, creativity, ability, skill

---

Hozirgi kunda shiddat bilan rivojlanayotgan ta‘lim sohasini innovatsion pedagogik texnologiyalarsiz tasavvur etish juda ham qiyin. Pedagogik texnologiyalar ta‘lim soxasini har bir jabhasini egallab bo‘lgan shu jumladan, maktabgacha ta‘limda ham faoliyat jarayonlarni pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish samarali natijalar beradi. Bu o‘rinda “Tashkilotdagi har bir pedagog pedagogik texnologiya nima ekanligini biladimi?”, “Pedagogik texnologiyadan faoliyati davomida o‘z o‘rnida foydalana oladimi?”, “Pedagogik texnologiya o‘zi nima?” degan savolga javob topsak . Pedagogik texnologiya (PT) - shunday bilimlar sohasiki, ular yordamida 3- ming yillikda davlatimiz ta‘lim sohasida tub burilishlar yuz beradi, o‘qituvchi faoliyati yangilanadi, bilimga chanqoqlik Vatanga mehr-muhabbat, insonparvarlik tuyg\_ulari tizimli ravishda shakllantiriladi.

“Texnologiya” tushunchasi texnikaviy taraqqiyot bilan bog\_liq holdafanga 1872 yilda kirib keldi va yunoncha -texnos- san‘at, hunar valogos-fan, ta‘limot so‘zlaridan tashkil topib, “hunar fani” degan ma‘noni bildiradi. Lekin bu ifoda

zamonaviy texnologik jarayonni to'liq tavsiflab berolmaydi, texnologik jarayonhar doim zaruriy vositalar va sharoitlardan foydalanganholda amallarni (operatsiyalarni) muayyan ketma-ketlikda bajarishni ko'zda tutadi. Aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, texnologik jarayon -bumehnat qurollari bilan mehnat obyektlari (xomashyo)ga bosqichma- bosqich ta'sir etish natijasida mahsulot yaratish borasidagi ishchi(ishchi-mashina) ning faoliyatidir. Texnologiya so'zidan kelib chiqadigan quyidagi tushunchalar ishlab chiqarishda ishlatiladi:

*Texnologik jarayon*- ishlab chiqariladigan mahsulotga ishlov berishning yagona jarayonini hosil qiluvchi texnologik operatsiyalarning yig'indisi.

*Texnologik operatsiya*-ishchi tomonidan o'zining ish joyida bajariladigan, yakuniga yetkazilgan harakat ko'rinishidagi jarayonning birqismi.

*Texnologik xarita*- ma'lum bir mahsulotni ishlab chiqarish texnologik operatsiyalarini ketma-ketligini bayon qiluvchi texnik hujjat.

*Texnologik rejim* -texnologik operatsiyalarni amalga oshirishni belgilovchi tartib bo'lib, ma'lum bir mahsulotni ishlab chiqarishda bajariladigan operatsiyalarning vaqti, shartlarini belgilaydi. Mana shu ta'rif va tushunchalarni o'quv jarayoniga ko'chirish xulosaga kelish mumkin:

*Pedagogik texnologiya* - bu o'qituvchi (tarbiyachi)ning o'quvchi (talaba)larga o'qitish vositalari yordamida muayyan sharoitlarda ta'sir ko'rsatishi va bu faoliyat mahsuli sifatida ularda oldindan belgilangan shaxs sifatlarini intensiv shakllantirish jarayonidir. Pedagogik texnologiya-o'quv jarayonini texnologiyalashtirishni butunligicha aniqlovchi tizimli kategoriya hisoblanadi. «O'qitish texnologiyasi», «Ta'lim texnologiyasi» tushunchalari pedagogik nashrlarda ham ishlatiladi. O'qitish texnologiyasi-birinchidan, pedagogik texnologiyaning jarayonli

harakat aspektini anglatadi. Bu esa ta'lim jarayonini o'zgaruvchan sharoitlarda,

ajratilgan vaqt davomida istiqbollashtirilgan natijalariga kafolatli erishishga va konkret ta'lim-tarbiya jarayonlarini amalga oshirishni instrumental ta'minlovchi usul va vositalar (texnologik operatsiya)larning tartibli birligini o'zida mujassamlashtirgan ta'lim modelini ishlab chiqish hamda amalga

texnologik jarayoni;

Ikkinchidan, pedagogik texnologiyaning jarayonli- bayonli aspektini ifodalaydi. Bu maqsadni amalga oshirish va istiqbolda belgilangan natijalarga erishish bo'yicha pedagogik hamda o'quv faoliyatini loyihasini bajarishning bayonidir (texnologik xarita). Ta'lim texnologiyasi- pedagogik texnologiyaning ilmiy aspektini belgilash

uchun ishlatiladi. Bu esa texnik va inson resurslarini hamda ularni o'z oldiga ta'lim shakllarini optimallashtirish vazifasini qo'yuvchi hamkorligini hisobga olgan holda dars berish hamda bilimlarni o'zlashtirishning barcha jarayonlarini yaratish, qo'llash va belgilashning tizimli usuli.

Pedagogik texnologiyani o'quv jarayoniga olib kirish zarurligini MDX davlatlari ichida birinchilardan bo'lib ilmiy asoslab bergan rossiyalik olim *V.P. Bepalko* «pedagogik texnologiya-amaliyotga joriy etish mumkin bolgan pedagogik tizimning loyihasidir», -deyish bilan, *quyidagi ta'rifni beradi*: «Pedagogik texnologiya-bu o'qituvchi mahoratiga bog'liq bo'lmagan holda pedagogik muvoffaqiyatni kafolatlay oladigan o'quvchi shaxsini shakllantirish jarayoni loyihasidir» Bepalkoning ta'rif mazmunidan quyidagi muhim tamoyillarni ajratib ko'rsatish mumkin:

-PT(Pedagogik texnologiya) o'quvchilarda ma'lum ijtimoiy tajriba elementlarini

shakllantirish uchun loyihalangani;

-Loyihalangan tayyor texnologiyani amalga oshirish fan o'qituvchisidan katta

mahorat talab etmaydi;

-Yakuniy natija albatta kafolatlanadi.

*T.S.Nazarovning ta'rif bo'yicha esa:* «Pedagogik texnologiya- ta'limtarbiyadan ko'zlangan maqsadga erishish uchun o'quv jarayonida qo'llaniladigan usullar, vositalar majmuidir» Nufuzli YUNESKO tashkiloti ma'qullagan ta'rif bo'yicha «Pedagogik texnologiya- ta'lim shakllarini optimallashtirish maqsadida texnikvositalar, inson salohiyati hamda ularning ta'sirini inobatga olib, o'qitish va bilim o'zlashtirishning barcha jarayonlarini aniqlash, yaratish va qo'llashning tizimli

metodidir» Nemis olimi Kurt Levin, shveysariyalik psixolog Jan Piajelar XX asrning 40-yillaridayok guruhda ko'pchilikning yagona bir qarorga kelishining

psixologik tabiatini o'rganish ekan, pedagogik texnologiyalarning ahamiyatini

alohida qayd etib o'tishgan.

Pedagogik texnologiyaga ta'lim usuli, ma'lum ma'noda ta'lim-tarbiya jarayonlari, vositalari, shakl va metodlari majmui deb qaraydi. «Pedagogik texnologiya ta'lim-tarbiyaning ob'ektiv qonuniyatlari, diagnostik maqsadlar asosida o'quv jarayonlari, ta'lim-tarbiyaning mazmuni, metod va vositalarini ishlab chiqish va takomillashtirish tizimidir», -deb ta'rif beradi. Ko'rib turganimizdek, «pedagogik texnologiya» tushunchasini ta'riflashda hali yagona fikrga kelinganicha yo'q. Bizning fikrimizcha, pedagogik texnologiya- ta'lim-tarbiya jarayonlari, ta'lim usuli, vositalari, shakllari, o'qituvchi va tahsil oluvchi o'rtasidagi munosabatlar majmui bo'lib, ta'lim jarayoniga tizimli, texnologik yondashuvni talab qiladi va o'zida ta'lim maqsadlarini oydinlashtirishni, natijasini kafolatlashni hamda ob'ektiv baholashdek muhim belgilarni aks ettiradi. Shuningdek pedagogik texnologiyaning fan sifatidagi vazifalarini o'qitishning har bir bosqichida ta'limning mazmunini belgilash, ta'limtarbiyaning shakllari va vositalarini tayyorlash, predmetning mazmuniga kiritish uchun testlar tayyorlash, vaziyatli matnlar, shaxsda shakllantirish nazarda tutilgan kasbiy sifatlar va ma'naviy fazilatlarini o'zlashtirishga yo'naltirilgan topshiriqlar tizimini ishlab chiqish va ta'limning natijasi hamda o'zlashtirish darajasini aniqlash ularni ob'ektiv baholash uchun test vazifalarini tayyorlash kabilar tashkil qiladi. Jumladan pedagogik texnologiya XX asrning oxirlarida deyarli barcha rivojlangan mamlakatlarda tez tarqalib, nufuzli YUNESKO tashkiloti tomonidan ham tan olindi va qo'llab-quvvatlandi. Bugungi kunda ko'pgina mamalakatlarda muvoffaqiyatli qo'llanilib kelinmoqda. Ko'plab davlatlar pedagogik texnologiyadan foydalanib, ta'lim-tarbiya tizimini rivojlantirishda, o'quvchilar o'zlashtirishini oshirishda sezilarli yutuqlarga erishdilar Ta'limni texnologiyalashtirishning asosini, ta'lim jarayonini, uning samaradorligini oshirish va ta'lim oluvchilarni, berilgan sharoitlarda va

belgilangan vaqt ichida loyihalashtirilayotgan o'quv natijalariga erishishlarini kafolatlash maqsadida to'liq boshqarishg'oyasi tashkil etadi. Shuningdek, pedagogik texnologiya yordamida 3-ming yillikda O'zbekiston ta'lim-tarbiya tizimida ham tub o'zgarishlar yuz berishi, o'qituvchi o'quvchi faoliyati yangilanishi, yoshlarda bilimga chanqoqlik, hurfikrlilik, insonparvarlik hamda Vatanga mehr-muhabbat tuyg'ulari tizimli ravishda shakllantirilishi ko'zda tutilmoqda «Yangi pedagogik texnologiya» nimani anglatadi? Birinchidan, pedagogik texnologiya ta'lim (tarbiya) jarayoni uchun loyihalangani. Har bir jamiyat shaxsni shakllantirish maqsadini aniqlab beradi va shunga mos holda ma'lum pedagogik tizim vujudga

keladi. Bu tizimga uzluksiz ravishda ijtimoiy buyurtma o'z ta'sirini o'tkazadi va ta'lim-tarbiya mazmunini umumiy holda belgilab beradi. Maqsadl esa pedagogik tizimning qolgan elementlarini o'z navbatida yangilash zarurligini keltirib chiqaradi

Mana shu o'rinda Xitoy xalq maqolini misol qilib keltirish mumkin. Menga gapirsang, esdan chiqaraman, menga ko'rsatsang, eslab qolishim mumkin, menga o'zimga ishlashga imkoniyat bersang, shunda bu batamom meniki bo'lib qoladil. Interfaol mashq, rolli o'yin–bu xarakat orqali o'rgatish - tajriba orttirishning eng samarali usulidir, bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirishning

qiziqarli shaklidir va bolalarga boshqalar shunday vaziyatlarda o'zlarini qanday his etganlarini tushunishga yordam beruvchi usuldir. Demak, ta'lim-tarbiyaning maqsadi butunlay yangilandi, unga mos holda mazmunning ham, pedagogik jarayonning xam yangilanishi tabiiydir. Ikkinchidan, fan va texnikaning rivojlanishi bilan inson faoliyati chegarasi nihoyatda kengayib boryapti, auditoriyaga o'qitish imkoniyatlari katta bo'lgan yangi texnologiyalar kirib kelmoqda. Shuningdek yangi metodikalarni talab etadigan va ta'lim jarayonining ajralmas qismiga aylanib borayotgan va unga o'zining ma'lum xususiyatlarini joriy etadigan yangi texnikaviy, axborotli hamda audiovizualli vositalar mavjudki ular yangi pedagogik texnologiyalarni real voqelikka aylantirdi. Pedagogik texnologiya mohiyati bilan boshqa texnologiyalar bilan bir qatorda turadi, chunki ular ham boshqa texnologiyalar kabi o'z xususiy sohasiga, metodlari, vositalariga ega, ma'lum material bilan ish ko'radi. Lekin pedagogik texnologiya inson ongi bilan bilimlar sohasi sifatida murakkab va hamma-ga ham tushunarli bo'lmagan pedagogik jarayonni ifoda etishi bilan

ishlab chiqarish va biologik, hatto axborotli texnologiyalardan ham farq qiladi. Endi maktabgacha ta'lim tashkilotida interfaol usullarni qo'llash uni amaliyotga tadbiiq etish usullarini ko'rib chiqsak. Bular eng ommalashgan

**BLOKCHAIN**—(Dunyoni o'zgartiradigan texnologiya) bu tizim ishtirokchilari vositachisiz bir-biriga aktivlarini ishonchli tarzda uzatish hisoblanadi. Misol uchun, blokchinda pul ko'chirmalari haqidagi yozuvlarni saqlash mumkin. Jumladan kriptovalyutalarda aynan blokchindan kim, kimga va qancha virtual pul o'tkazganligi to'g'risidagi ma'lumotlarni qayd qilish uchun foydalaniladi. Lekin blokchinda boshqa aktivlarni ham saqlasa bo'ladi. Umuman olganda, nimani qog'ozda yozishning imkoni bo'lsa, o'sha narsalarning barchasini blokchinda ham yozish mumkin bo'ladi, faqat birgina farq bilan – blokchinda yozuvlarni almashtirish va soxtalashtirish imkoni yo'q.

**VEB KVEST** (Web quest ) bir bo'lib savol yo'naltirilgan dars o'quvchilar bilan ishlash va ta'lim intizomlariga qiziqtirish uchun o'yinni o'qitish metodlaridan biri. Ta'lim sohasidagi kvest texnologiyalari ma'lum bir vazifa yechimini izlashga asoslangan. Bu jarayonlar oddiy dasturlar orqali amalga oshirilishi mumkin, shu jumladan, ma'lumotlarni olish uchun veb saytlardan<sup>43</sup> ham keng foydalaniladi .

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib bo'lajak tarbiyachining kompetentligini, kreativligi va innovatsion faoliyatini tizimli tashkil etishni oshirishda quyidagi metodlardan pedagogik–metodik kengashlarda, o'quv seminarlarida, masterklass, konferensiyalarda foydalanish uchun tavsiya etiladi.

“Qarama qarshi suzayotgan baliqlar” metodi va bajarilish bosqichlari «Qarama qarshi suzayotgan baliqlar» usulining maqsadi:Bo'lajak tarbiyachilarda erkin fikrlashga va yangig'oyalar yarata olishga zamin yaratish hamda ijodkorlik hislatlarini tarbiyalash. «Qarama qarshi suzayotgan baliqlar»bu usuli ikkita kichik guruhlarda amalga oshiriladi. Bunda ishtirokchilarga berilgan masala yoki topshiriq tizimlilik asosida muxokama qilish, o'z fikrlarini asoslash va qarshi tomon fikriga qarshi fikr bildira olish imkonini beradi. Bunda guruhning har bir a'zosi barcha taklif etilgan masalalarni atroflicha o'rganib chiqadilar, javoblarni taqdim etadilar va qarshi guruhdan berilgan javoblarga o'z fikrlarini bildiradilar. 1-bosqich. So'zga qarshi so'z .Bu bosqichda pedagog har bir guruhga ma'lum so'zlarni aytadi. Ishtirokchilar shu so'zga qarama–qarshi bo'lgan so'zlarni aytadilar.Masalan: yaxshi-yomon, oq-qora , urush-tinchlik, kun–tun va x.k

2-bosqich. Fikrga qarshi fikr. Ushbu bosqichda bosqichda pedagog guruh a'zolariga biron fikrni aytadi. Ishtirokchilar esa shu so'zlarga qarma-qarshi bo'lgan fikrlarni bildiradilar. Misol uchun: Quyosh yaxshi u o'simliklarni rivojlanishiga yordam beradi. Quyoshni qattiq nur sochishi oqibatida oftob urishi mumkin. Suv- bu hayot manbayi. Suvning ko'pi suv toshqinlariga olib keladi

3-bosqich. G'oyaga qarshig'oya. Bu bosqichda esa pedagog ishtirokchilarga go'yaga qarshig'oya aytishni taklif etadi. Har bir guruh qo'shni guruhningg'oyasini tinglaydi va qarshig'oya bilan javob beradi. Bunda maktabgacha ta'limda ko'proq rasmlardan foydalaniladi.

4-bosqich. Natijalar taxlili bosqichi. Ushbu bosqichda har bir guruh navbat bilan o'zlarining qog\_oz varaqlarida yig'ilgan natajalarnig'oyalarni tushuntirish va sharhlar bilan taqdim etadi. Har ikkala guruh bir-birlanig'oyalarni tushuntirib, sharhlab beradilar. Pedagog ishtirokchilarni javoblarini umumlashtiradi va izoxlaydi. Misol uchun maktabgacha ta'limda qo'llaniladigan mavzular :maktabgacha ta'limda tarbiyalanuvchilarga ta'lim-tarbiya berishdagi mavjud muammolar va hokazo.

## **ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1.F.R. Qodirova, N.M. Qayumova, M.N. Agzamova "Maktabgacha

pedagogika" Toshkent-2019 –yil,672 b

2. N.T.Tosheva "Maktabgacha ta'lim –tarbiyani tashkil etish" Buxoro-2022-yil,344

3. Sh.O.Boymirzayeva (2024) DEVELOPMENT OF CREATIVITY OF THE FUTURE EDUCATOR IN THE PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATION. International Journal of Discoveries and Innovations in Applied Sciences 20-22

4.[http://ru.wikipedia.jrg/wiki/Metodы obucheniya](http://ru.wikipedia.jrg/wiki/Metod%20obucheniya).

5.mahoratacademy.uz

6.Soliyev Ilhomjon Sobirjonovich, Boymirzayeva Shakhnoza Olimjon

kizi. Professional Competence of a Teacher as a Factor of Increasing the Quality

of Preschool Education. International Journal of Culture and Modernity. ISSN

2697-2131, Volume 18/July-2022, 95-99 bet.

7.Soliyev Ilhomjon Sobirjonovich, Boymirzayeva Shahnoza Olimjon qizi.

MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMIDA INNOVATSION

YONDASHUVNING USLUBIY ASOSLARI VA PEDAGOGIK SHART

SHAROITLARI. ILM-FAN VA INNOVATSIYA ILMIY-AMALIY

KONFERENSIYASI in-academy.uz/index.php/si, 128-129 bet.

8.I.S.Soliyev, Sh.O.Boymirzayeva. TARBIYACHILAR KASBIY

KOMPITENTLIGINI OSHIRISH, MAKTABGACHA VA BOSHLANG,,ICH

TA‘LIMNING DOLZARB MASALALARI: MUAMMO, YECHIMLAR VA

RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani

MATERIALLARI,364-365 bet.

9.Soliyev Ilhomjon Sobirjonovich, Boymirzayeva Shakhnoza Olimjon kizi.

Systemic Organization of Professional Competence, Creativity and Innovative

Activity of A Future Kindergartener. Journal of Pedagogical Inventions and Practices. ISSN NO: 2770-2367 <https://zienjournals.com> Date of Publication:

10-04-2023. 108-112 bet.